

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

| | |
|--|-----|
| 1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Hakim HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI..... | 9 |
| 2. Сеитов Азамат Пулатович ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА..... | 18 |
| 3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ..... | 27 |
| 4. Убайдуллаева Раиса ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ..... | 35 |
| 5. Abduraxmonova Manzura IJTIMOIY NIHOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI..... | 42 |
| 6. Madaminov Baxodir JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA...51 | |
| 7. Yusupov Rahimjon SOTSILOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA Olish TADBIRLARIDAN FOYDALANISH..... | 59 |
| 8. Узакова Зарина ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ..... | 68 |
| 9. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI..... | 75 |
| 10. Hojiyev Zavqiddin TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI..... | 83 |
| 11. Mahammadjanov G‘olibjon FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLAR VA IJTIMOIY OHANG TRANSFORMATSII: UZARO BOGLIQLIK, ZARURAT OMILLARI (SINERGETIK ENDASHUV)..... | 93 |
| 12. Gaibnazarov Baxodir DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV)..... | 100 |
| 13. Mamatqulova Fotimaxon O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR..... | 107 |

| | |
|--|-----|
| 14. Komilova Xurshida XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOYIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA..... | 114 |
| 15. Mannanov Erkin SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI..... | 123 |
| 16. Ubaydullayev Xurshidjon MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH..... | 130 |
| 17. Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI..... | 139 |
| 18. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 148 |
| 19. Ахмедова Раъно АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ..... | 157 |
| 20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ..... | 167 |

ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г.Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдут своего читателя и будут способствовать лучшему пониманию развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремится донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.


**С уважением,
Главный редактор Сеитов Азамат**

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Акромов Давронбек,
Farg‘ona davlat universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOY XIZMATLAR KO‘RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338541>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada murojaat qilish uchun qobiliyat, ko‘nikma, bilim yoki resurs yetishmaydigan ijtimoiy himoyaga muhtoj, xavf guruhidagi oilalarga samarali, kompleks, zarur holda individual ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning “keys menejment” usuli empirik-nazariy tahlil etilgan. Ijtimoiy xodim, keys menejer rovida mijoz bilan munosabatga kirishish, ehtiyojlarni baholash, xizmatlar rejasini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish, samaradorlikni baholash kabi bosqichlari keys menejer funksiyasi asosida tasniflangan. Shuningdek, keys menejment jarayonida ijtimoiy xodim mijoz va atrof-muhit o‘rtasidagi interfeysda foydalanadigan modellarning amaliy ahamiyati bayon qilingan. Maqola “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining ijtimoiy xodimlari amaliyotda foydalanishiga samarali xizmat qilishi maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: keys menejmet, ijtimoiy ish, xavf guruhidagi oila, keys menejer, mijoz, bola, ijtimoiy xizmat, baholash, resurs, xizmatlarni muvofiqlashtirish, ijtimoiy xodim.

Акромов Давронбек,
базовый докторант
Ферганского государственного университета
e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДА CASE MANAGEMENT ПРИ ПРЕДОСТАВЛЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ СЕМЬЯМ В ГРУППЕ РИСКА И ИХ ДЕТЯМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье эмпирически и теоретически анализируется метод «кейс-менеджмента» предоставления эффективных, комплексных, при необходимости индивидуальных социальных услуг семьям, входящим в группу риска, которые нуждаются в социальной защите и не имеют возможности, навыков, знаний или ресурсов для ее применения. В роли социального работника кейс-менеджера классифицируются этапы установления отношений с клиентом, оценки потребностей, разработки плана обслуживания, предоставления развитых социальных услуг, оценки эффективности, исходя из функции кейс-менеджера. Также описывается практическая значимость моделей, используемых социальным

работником. Статья призвана эффективно служить практическому использованию социальными работниками центров социального обслуживания «Инсон».

Ключевые слова: кейс-менеджмент, социальная работа, семья группы риска, кейс-менеджер, клиент, ребенок, социальная служба, оценка, ресурс, координация услуг, социальный работник.

Akramov Davronbek,
Basic PhD student
Fergana State University
e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

EFFECTIVENESS OF THE CASE MANAGEMENT METHOD IN PROVIDING SOCIAL SERVICES TO FAMILIES AT RISK AND THEIR CHILDREN

ABSTRACT

This article empirically and theoretically analyzes the “case management” method of providing effective, comprehensive, if necessary, individual social services to families at risk who need social protection and do not have the opportunity, skills, knowledge or resources to apply it. In the role of a social worker-case manager, the stages of establishing a relationship with a client, assessing needs, developing a service plan, providing developed social services, and assessing effectiveness are classified based on the function of the case manager. It also describes the practical relevance of the models used by the social worker. The article is intended to effectively serve the practical use of «Inson» social service centers by social workers.

Key words: case management, social work, family at risk, case manager, client, child, social service, assessment, resource, coordination of services, social worker.

KIRISH

Xavf guruhida bo‘lgan oilalar bir nechta xususiyatlar bilan ajralib turadi, masalan-bir nechta o‘ziga xos ichki yoki tashqi ijtimoiy muammo, ehtiyojlar, oiladagi inqirozli vaziyat, bu xavf guruhida bo‘lgan oilalarni jamiyatdagi eng noqulay maqsadli guruhlardan biri bo‘lishiga olib keladi, shuningdek xavf guruhida bo‘lgan oilalar, duch keladigan ijtimoiy muammolarning tabiati va murakkabligi tufayli, o‘z hayotlarini boshqarishga, shuningdek, bolalariga tegishli yordam ko‘rsatishga qodir emaslar. Huquqiy hujjatlarda ham, ilmiy adabiyotlarda ham xavf guruhida bo‘lgan oilani aniqlash uchun turli mezonlardan foydalaniladi. Ushbu oilalar odatda 1) spirtli ichimliklar va boshqa moddalarni suiiste‘mol qiladilar, ko‘pincha 1) xulq-atvorning salbiy tabiati bilan ajralib turadi; 3) oilani qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy yordamni (imtiyozlarni) suiiste‘mol qilishadi; 3) farzandlarining hatto asosiy ehtiyojlarini qondirishga qodir emaslar; 4) ijtimoiy va ota-onalik ko‘nikmalariga ega emaslar. Umuman olganda, bunday oilaning ta‘rifi oiladagi mavjud vaziyatni tavsiflaydi: bolalarning farovonligi va ularning yetarli darajada rivojlanishi hamda xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug‘diradigan bir nechta ijtimoiy xavflar, muammolar majmuasiga duch kelishadi. Bundan tashqari, tashqi aralashuvni talab qiladi, chunki xavf guruhida bo‘lgan oilalar o‘zlariga yordam berishga tayyor yoki imkoniyatlarga ega emaslar. Ushbu masalalar keys menejment yonadashuvini talab etib, aynan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi mahallada ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlar tomonidan xavf guruhidagi oilalar va ularning bolalarini aniqlashda, sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishda ijtimoiy ishning keys menejment usulidan foydalanish samarali bo‘lib xizmat qilmoqda.

METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Ijtimoiy himoya faqat nafaqa to‘lash bilan kifoyalanmasdan, balki muhtojlarning “oyoqqa turishi” [1] ga ko‘maklashishi lozimligi - deb ta’kidlashida, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va insonlar bilan ishlashni samarali usullarini qo‘llash zarurligiga urg‘u bermoqda. Demak shunu ta’kidlash kerakki, ijtimoiy ishning keys menejment usuli

aynan ijtimoiy himoyaga muhtoj, xavf guruhidagi oilalar va ularning farzandlariga samarali, kompleks, zarur holda individual yordam ko'rsatish maqsadida amaliyotda foydalaniladi.

Keys menejment ijtimoiy ishning kasbiy yo'nalishlarida, jumladan maktab ijtimoiy ish sohasida qo'llaniladigan, nisbatan yangi va innovatsion usuldir. Buni oila va bolalar bilan ijtimoiy ishining maqsadlarini amalga oshirish usuli sifatida ham tushunish mumkin. Boshqa tomondan, bu ijtimoiy ishda uzoq va qisqa muddatli maqsadlar uchun ko'p tarmoqli professional jamoani yaratishga asoslangan muammolarni hal qilish hamda ijtimoiy ish jarayoniga tizimli yondashuvi xisoblanadi. Ushbu usulning o'ziga xosligi kuchli tomonlardan (resurslardan) foydalanish potentsialiga asoslangan turli mutaxassislar o'rtasida kelishib tuzilgan va tashkil etilgan ish rejasida yotadi. Umuman olganda, muhokama qilingan metodologiya xavf guruhidagi oilalar bilan ijtimoiy ishlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini hisobga olsak, bunday ish strategiyasi turli xil oila a'zolarini ham ko'plab ehtiyojlarini qondirish uchun ularning ijtimoiy muhiti farqlarini, xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan ahamiyatli. Ijtimoiy xizmatlar tartibi davlat qonunchiligi tomonidan belgilab beriladi. Ijtimoiy xizmat tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida "Ijtimoiy xizmatlar shaxsning turmushi sifatini oshirishga, unga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo'lgan imkoniyatlarini yaratishga va o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga, xizmatga muhtoj shaxslarga yordam ko'rsatish bo'yicha huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta'limga oid, tibbiy, reabilitatsiya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar majmuyidir" [2], – deb ko'rsatilgan. Agarda ijtimoiy xizmat huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta'limga oid, tibbiy, reabilitatsiya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar majmuyidan tarkib topgan bo'lsa, kasbiy faoliyat sifatida bir qancha sohalardagi faoliyat turlarini o'zida mujassam etadi.

Keys menejment (vaziyatni boshqarish) - mijoz va uning atrofi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan ishni o'z ichiga oladi. Usul sifatida keys menejment to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy ish amaliyotida birinchi o'ringa chiqdi, Rothman ta'riflaganidek, "keys menejment individual mijoz manfaati uchun bir nechta manbalardan xizmatlar ko'rsatishni muvofiqlashtirish uchun mo'ljallangan [3, – B.267]. Dastlab keys menejmentning maqsadi ikki xil edi: insonlar va oilalar duch keladigan ko'plab muammolarni hal qilish va davlat resurslarini tejash. Vaqt o'tishi bilan, 1960-yillarda insonlarga kerakli ehtiyojlarni o'z sohasiga ko'chirish va saqlash uchun deinstitutionalizatsiya tashabbuslari bilan boshlangan ishlarni boshqarish tezligi o'sdi [4]. Ko'p jihatdan, keys menejmentning o'sishiga davlat tomonidan moliyalashtiriladigan dasturlar sabab bo'ldi, ularning aksariyati xizmatlarni muvofiqlashtirish va integratsiyalashuvini talab qiladi.

Nazariy jihatdan keys menejment murakkab, ko'p muammolari bo'lgan mijozlarga barcha kerakli xizmatlarni o'z vaqtida va to'g'ri tarzda olishlarini ta'minlashga harakat qiladigan, xizmatlar ko'rsatish yondashuvi sifatida belgilanishi mumkin. Keys menejment- mijozning umumiy holatini baholash, ehtiyojlarni qondirish va ushbu baholashda aniqlangan muammolarni hal qilish jarayoni [5, – B. 472] xisoblanadi. Keys menejment- bu sifatni oshirish uchun aloqa va mavjud resurslardan foydalangan holda, shaxsning sog'lig'i, ijtimoiy yordami, ta'lim, bandlik ehtiyojlari va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan variantlar va xizmatlarni baholash, rejalashtirish, amalga oshirish, muvofiqlashtirish, monitoring qilish va samaradorlik baholash bilan bog'liq hamkorlik jarayoni [6]. **Keys-menejment shuningdek vaziyat yuzasidan ishlarni yuritish, vaziyatni boshqarish** deb ham ataladi. Keys menejmentning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bitta muammoga emas, balki mijozning ehtiyojlari to'plamiga qaratilgan. Keys menejment - bu qiyin va inqirozli hayotiy vaziyatlarda bo'lgan insonlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasdeb ham aytish mumkin [7, – B.24].


Keys menejmentning bir qancha ta'riflari mavjud, bulardan rasmiy ta'rif sifatida keys-menejment bo'yicha Amerika Jamiyati ta'rifida, keys menejment – bu individ va oilani hamkorlikda baholash, xizmatlarni rejalashtirish, ko'rsatilishiga yordam berish hamda ularni muvofiqlashtirish, erishilgan natijalarni baholash, mijoz uchun xavfsiz va sifatli xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash hamda iqtisodiy samarali natijalarga erishish uchun muloqot va qulay resurslarga yo'naltirish orqali individ va oilaning har tomonlama o'rganilgan

ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish jarayonidir [8] deyiladi. Ijtimoiy ishchilar milliy uyushmasi (NASW) esa, keys menejment – bu mijoz nomidan turli ijtimoiy xizmatlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni rejalashtirish, ularni izlash, mijozning huquqlarini ilgari surish va erishilgan natijalar monitoringini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi jarayondir. Keys-menejment kasbiy salohiyatli jamoa ishi asosida ko'rsatiladigan xizmatlar toifasini kengaytirgan holda ushbu mijozga xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Keys-menejment xizmatlarning tartibsiz tarzda ko'rsatilishi, xodimlarning ish joyidan bo'shashi, xizmatlarni ko'rsatuvchilar orasidagi hamkorlikning etarli emasligi kabi muammolarning oldini olishga yordam beradi [9].

Keys menejerlari ko'pincha ijtimoiy ishchilardir, lekin ular psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, inson xizmatlari va oilaviy ijtimoiy fanlar kabi boshqa fanlarni ham bilishi kerak [10]. Ular mijozlar bilan xizmatlar va resurslarni muvofiqlashtiradi, shuning uchun oila a'zolari va ularning hayotiga ta'sir qiluvchi bir nechta tizimlar bilan ishlaydi [11, – B.429]. Ularning roli oilaning kuchli tomonlari va ehtiyoj sohalari baholash, ehtiyojlarni qondira oladigan kuchli tomonlarga asoslangan resurslarni aniqlash, xizmatlar uchun tavsiyalar berish, ishlarni rejalashtirish, qo'llab-quvvatlovchi maslahatlar berish, boshqa xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan hamkorlik qilish, vositachilik va targ'ibot ishlarini olib borishni o'z ichiga oladi.

Ushbu yondashuvning prototipini 1917-yilda paydo bo'lgan ijtimoiy diagnostika kontseptsiyasi deb hisoblash mumkin. Meri Richmondning ishida ijtimoiy diagnostika ta'rifi shakllantirilgan. Ijtimoiy diagnostikada M. Richmond - mijozlar uchun emas, balki ular bilan ishlashni va umumiy xulosalar yoki taxminlar qilishdan ko'ra, sabablarini kelib chiqishiga va tushunish bilan yondashishni yoqladi. "Ijtimoiy diagnostika" atamasi har bir mijozning o'ziga xos kelib chiqishi, muammolari va individual ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda "mutaxassislariga ma'lumot to'plash va mijozlar muammolarini o'rganishda yordam berishning tizimli usuli" degan ma'noni anglatadi [12,-B.268].

ASOSIY QISM



1-chizma. Oilaviy ijtimoiy ish doirasida ishlarni boshqarishning maqsadlari

Oilaga yo'naltirilgan va kuchli tomonlarga asoslangan keys menejment yondashuvi eng yaxshi amaliyot. Keys menejment xizmatlarining samaradorligi mijozlarning shaxsiy resurslari va chidamlilik manbalariga asoslangan madaniy jihatdan malakali amaliyotlarga, shuningdek, oilalar va bolalarni jamoat resurslari bilan bog'lashiga bog'liq [13]. Keys menejerlari va xizmat foydalanuvchilari o'rtasidagi, resurslarning mavjudligi, mijozlarning xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar o'rtasidagi hamkorlik sifatiga asoslanadi [14, –

B.135]. Takidlash lozimki, aynan ushbu jixatlar, xavf guruhidagi oilalar va ularning bolalari bilan ishlashda ham samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy ishda keys menejment amaliyotida maxsus taqdim etilgan xizmatlar bitta agentlikda to'planishi yoki bir qator tashkilotlar bo'ylab taqsimlanishi mumkin [15]. Keys menejmentning asosiy maqsadi "bir nechta murakkab ehtiyojlarga ega bo'lgan shaxslar yoki oilalarga eng samarali tarzda yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish va muvofiqlashtirish orqali mijozning ishlashi hamda farovonligini optimallashtirish" [16]. Shuningdek, bizning fikrimizcha, bunga qo'shimcha sifatida o'z vaqtida ko'rsatilishi ham asosiy maqsadlaridan biridir.

Aynan xavf guruhidagi oilalar va ularning farzandlari bilan ishlashda keys menejerlar odatda uchta asosiy maqsadni amalga oshirishga intilishlari zarur (1-chizmaga qarang).

Keys menejment - bu xizmatlar ko'rsatishga yondashuv va xizmatlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish usuli hamda fanlararo texnologiya bo'lgani uchun u turli amaliy modellarning ishlash tamoyillari va usullarini o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari 1-jadvalda berilgan.


Keys menejmentda foydalaniladigan amaliy modellar

1-jadval

| Amaliy model | Model mazmuni |
|-----------------------------------|---|
| Muammoni yechish modeli | Amerikalik nazariyotchi Helen Perlman tomonidan 1950-1970-yillarda psixodinamik nazariyalar asosida ishlab chiqilgan [17], asosiy e'tiborni insonning o'zi oldida turgan psixologik muammolarni qanday hal qilishini tushunishga qaratadi |
| Psixosotsiyal model | Florens Hollis tomonidan taklif qilingan [18], subyektning deviant yoki noto'g'ri xatti-harakatlarining sabablarini tushunish va "mijozning ijtimoiy kasallik tarixini" qayta tiklash uchun shaxsni tashxislash va o'rganishga e'tibor qaratadi. ijtimoiy xodimning mijozga o'zining ijtimoiy-psixologik yordamini, shu jumladan qaror qabul qilish va empatiyani, his-tuyg'ularni muhokama qilishni, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashni, o'z-o'zini anglash kabi jamiyatda o'zini o'zi belgilash ko'nimmalarini o'rgatishga yordam beradi |
| Vazifaga yo'naltirilganlik modeli | 1970-yilda Rid va Epshteyn tomonidan taklif qilingan, mijoz va ijtimoiy xodim o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniq tuzilgan, ko'rsatma va vaqt cheklangan bo'ladi. O'zaro munosabatlarning ketma-ket bosqichlari quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi: mijoz muammosining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, muammoni birgalikda hal qilish bo'yicha rozilik shartnoma tuzish, vazifani rejalashtirish va uni amalga oshirish, maqsadga erishish, muammoni hal qilish. Muammoning holatini aniqlash va vazifalarni to'g'ri bajarish mijozning muammosini muvaffaqiyatli hal qilishning asosiy komponentlari hisoblanadi. |
| Inqirozga aralashuv modeli [19] | Mijozning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli vaziyatni bartaraf etishning qisqa muddatli usuli, asosiy maqsadi, birinchidan, xavfli omillarni zudlik bilan bartaraf etish, ikkinchidan, zudlik bilan terapevtik aralashuv orqali stressli hodisaga reaksiyani yumshatishdir. Keyinchalik, salbiy hissiy tajribalarga javob berish va psixologik resurslarni faollashtirish uchun individual va guruhli psixologik hamda ijtimoiy tuzatish usullari qo'llaniladi. |
| Ekologik yondashuv modeli | Inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ijobiy o'zaro ta'sirga asoslangan holda yaxshilashni o'z ichiga oladi. Inson va atrof-muhit bir-birini to'ldiruvchi tizimlar sifatida qaraladi, bu yerda inson o'zi shakllantiradigan muhitga ega. Ijtimoiy xizmatlar bo'yicha |

mutaxassis mijozga quyidagi masalalarda yordam beradi: 1) atrofidagi yashash maydoniga nisbatan kompetentsiyani oshirish, unga "hayotiy ko'nikmalar" ni o'rgatish; 2) yordamning turli shakllari orqali yanada qulay muhit yaratishda. Ushbu model integratsiyalashgan tizimlar sifatida inson va atrof-muhitning keng qamrovli ko'rinishini taqdim etadi.

Ushbu cnizmada keys menejmentning umumiy bosqichlari, ketma-ketlik asosida amalga oshirilishi tushuntiriladi (2-chizma).



2-chizma. Keys menejment bosqichlari

Keys-menejment jarayoni siklik bo'lib, u takrorlanuvchanlik xususiyatiga ega, ijtimoiy xizmat faoliyatida o'rnatilgan tartib qoidalar doirasida ijtimoiy ish kasbiy axloq qoidalariga asoslanib, ahloqiy tamoyil va yondashuvlarni qo'llagan holda amalga oshiriladi.

Keys menejmentni amalga oshirivchi keys menejer xisoblanadi. Keys-menejer – bu ijtimoiy xizmatlar sohasidagi mutaxassis bo'lib, u mijozning ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sohasiga taalluqli muammolari, ehtiyojlari asosida alohida mijoz yoki mijozlar guruhiga ko'rsatilayotgan umumiy g'amxo'rlik, xizmatlar va resurslardan foydalanilishining muvofiqlashtirilishiga javob beruvchi

mutaxassis hisoblanadi. Xarkey [20] ta'kidlaganidek, keys menejer butun ishni boshqarish jarayonida shaxsning manfaatlari, istaklari, ehtiyojlari va qadriyatlariga muvofiq harakat qiladilar. Rejaning bajarilishini nazorat qilishdan tashqari, keys menejer xizmatdan foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish uchun ham mas'uldirlar.

Vasiliauskienė va Kavaliauskienė [21] ga ko'ra, keys menejer qiyinchiliklarga duch kelgan oila va xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar o'rtasida vositachidir deb ta'kidlaydi. Keys menejerning faoliyati oilaga tegishli yordam ko'rsatish va xizmatlar jarayonini muvofiqlashtirish, oilalarning imkoniyatlarini kengaytirish, mavjud resurslarni aniqlash, ulardan foydalanish, oila hamda bola duch keladigan xavf omillarini aniqlashga qodir bo'lgan mutaxassislarni birlashtirishdan iborat. Keys menejment yondashuvi mijozga individual yondashuv va vaziyatga yaxlit yondashuvga asoslanadi.

Keys menejment jarayonida xavf guruhidagi oilalar va ularning bolalari bilan ishlashdagi keys-menejer funksiyalari quyidagicha:

- Yordam uchun murojaat qilgan oila/shaxs bilan aloqa o'rnatish. Murojaat bo'yicha birlamchi baholashni o'tkazish, omillarni aniqlash hamda xatar darajasini baholash, oila/shaxsning ijtimoiy xizmatlarga muhtojligini aniqlash;

- Mijozning xizmatlarga jalb qilinishi yuzasidan yozma xabardorligi haqidagi roziligini olish;

- Mijoz hamda uning oilasi vaziyatini har tomonlama baholanishini o'tkazish. Baholash mijoz hamda oilaning jismoniy, funksional, xulq-atvori, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini, shu jumladan o'z sog'lig'i haqida g'amxo'rlik ko'rsata olishi, hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarga egaligi, mahalliy yashash joyida psixosijtimoiy ko'mak bo'yicha xizmatlardan foydalana olishi imkoniyatlari baholanish;

- Baholash natijalari, maqsadlarning, kutilayotgan natijalar va buning uchun zarur resurslarning belgilanishi, ko'rsatiladigan xizmatlar individual rejasining ishlab chiqilishi mijoz va uning butun oilasi a'zolari, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirish;

- Ko'rsatiladigan xizmatlarning samarasiz ko'rsatilishi ehtimolini pasaytirish maqsadida boshqa ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi a'zolarining o'zaro hamkorligi o'rnatish, belgilangan harakatlarning muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish jarayoniga mijozning jalb qilinishiga alohida e'tibor qaratish;

- Keys-menejmentning barcha bosqichlarida mijoz/ oila va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassisi bilan muntazam ravishda muloqot o'rnatib turish. Mijozni yashash joyiga yaqin resurslar, ehtimoliy imtiyozlar, zamonaviy va har tomonlama tushunarli bo'lgan qarorlarni qabul qilish maqsadida xizmatlardan foydalanish bo'yicha tegishli qonunchilik me'yorlaridan xabardor qilib borish;

- Kuchli tomonlar yondashuvidan foydalanish hamda samarali usul va xizmatlarni tanlash uchun muqobil variantlarni taklif qilish orqali muammolarni hal qilish maqsadida mijozga maslahatlar va imkoniyatlar yaratilishiga ko'maklashish;

- Tashkilot talablari hamda me'yoriy-huquqiy tartib qoidalardan kelib chiqib o'z vaqtida zarur hujjatlarni yuritish hamda shakllarni to'ldirib boradi;

- Rejaning amalga oshirilishi va xizmatlarning ko'rsatilishi samaradorligini baholab borish. Mijozlarning xizmatlardan foydalanish yo'lida sodir bo'layotgan muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha choralar qabul qiladi;

- Tegishli muassasalar va idoralarda mijoz manfaatlarini himoya qilish, muassasa yoki jamoatchilik tomonidan mijozga nisbatan qilinayotgan tazyiqli munosabatlarga javoban zudlik bilan e'tiroz bildirib, ularni hal etadli;

- Mijozda mustaqil tarzda o'z muammolarini hal etish hamda o'zligini anglash qobiliyatini rivojlantirish, dalillarga asoslangan, mijoz manfaatlariga yo'naltirilgan, madaniyatga mos keluvchi amaliyotga rioya qilinishini ilgari suradi

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, jahon ijtimoiy ish amaliyotining so'nggi yillarida turli amaliyotlarni birlashtirish tendentsiyasi kuzatildi. Ulardan biri, birinchi navbatda g'arbda ahamiyatli

boʻlgan keys menejment usulidir. Biroq, MDH mamlakatlari uchun keys menejmet amaliyotda ancha yangi usul. Bugungi kunga kelib, Oʻzbekistonda ijtimoiy sohani ham qamrab olgan milliy modernizatsiya dasturi natijasida keys menejment maʼlum ahamiyatga ega boʻldi. Ushbu tadqiqot Oʻzbekistondagi xavf guruhidagi oilalar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy ishning holati va ishlarni boshqarish amaliyoti texnologiyasini tatbiq uchun moʻljallangan. Umuman olganda, keys menejment shaxsning bir nechta ehtiyojlarini muvofiqlashtirilgan, har tomonlama ehtiyojlarga samarali ijtimoiy xizmatlar koʻrdstish uchun moʻljallangan. Keys menejmentning bosqichlar va ular bilan bogʻliq vazifalar shaxsga xos boʻlgan ish rejasini ishlab chiqishga imkon beradi. Keys menejmentning katta afzalligi shundaki, xizmatlar baholangan ehtiyojlar asosida aniqlangan boʻlib, bu shaxsning murakkab yordam tizimlarini mustaqil ravishda boshqarishiga toʻsqinlik qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Mirziyoyev Sh. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida yangi tizim joriy etiladi. <https://president.uz/oz/lists/view/3091>.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар тўғрисида”ги Қонуни // “Халқ сўзи” газетаси, 27 декабрь 2016 йил. 255 (6690)-сони.
3. Rothman, J. (2002). An overview of case management. In A. R. Roberts & G. J. Greene (Eds.), *Social Work Desk Reference* (pp. 467–472). New York, NY: Oxford. P.267
4. National Association of Social Workers (NASW). (1992). *NASW Standards for Social Work Case Management*. Retrieved from <http://www.NASWDC.org/practice/standards/sw-case-management.asp>
5. Summers N. *Fundamentals of Case Management Practice: Skills for the Human Services* (4th Ed). – Belmont: Brooks/Cole. – 2012. – P. 472.
6. Harkey J., *Social Work Today* 17, 1-20 (2017)
7. Кейс-менеджмент: практическое руководство. Технология социальной работы по организации жизнедеятельности и социальной реабилитации лиц с нарушением интеллекта и психическим заболеванием при интеграции в общество и включении в продуктивную деятельность / Хакимжанова Г.Д., Смагулова Ж.С., Абсеитова Ж.Н., Сулейменова К.Ш. – Алматы: ОО «Ассоциация социальных работников, инвалидов и волонтеров», 2017. – 24 с.
8. <https://pdf4pro.com/view/standards-of-practice-for-case-management-1ec914.html>
9. Стандарты кейс-менеджмента Национальной Ассоциации Социальных Работников США. NASW (US) Standards for Social Work Case Management. National Association of Social Workers. USA, 2013. <https://www.socialworkers.org/LinkClick.aspx?fileticket=acrzqmEfhlo%3d&portalid=0>
10. Frankel A. J., & Gelman, S. R. (2012). *Case management: An introduction to concepts and skills* (3rd ed.). Chicago, IL: Lyceum Books
11. Hepworth D., Rooney, R., Dewberry-Rooney, G., Strom-Gottfried, K., & Larsen, J. (2012). *Direct social work practice* (9th ed.). Pacific Grove, CA: Brooks-Cole: Thompson, H. M., Wojciak, A. S., & Cooley, M. E. (2017). Through their lens: Case managers’ experiences of the child welfare system. *Qualitative Social Work*, 16(3), 411–429.
12. Richmond M. (1922) *What is social case work*. New York: The Russell Sage Foundation Publ., 268 p.
13. Saleebey D. (2013). *The strengths perspective in social work* (6th ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson
14. Bender K., Kapp S., & Hahn S.A. (2012). Are case management services associated with increased utilization of adolescent mental health treatment? *Children and Youth Services Review*, 33(1), 134–138. National Association of Social Workers. (2013). *NASW standards for social work case management*. Washington, DC: Author. Retrieved from <https://www.socialworkers.org/practice/naswstandards/casemanagementstandards>

15. Social Work Best Practice Healthcare Case Management Standards". [Electronic resource]. URL: <http://www.sswlhc.org/docs/swbest-practices.pdf> .
16. "NASW Standards for Social Work Case Management". (2013). National Association of Social Workers. p. 15 Accessed from <https://www.socialworkers.org/LinkClick.aspx?fileticket=acrzqmEfhlo%3D&portalid=0>
17. Perlman H.H. (1970). The problem-solving model in social casework. In R. W. Roberts & R. H. <https://allisonmurdach.wordpress.com/2011/05/05/helen-harris-perlman-and-the-problem-solving-model/>
18. Hollis F. (1972), Casework: A Psychosocial Therapy, 2nd edn. New York: Random House.
19. Berger P & Riecher-Rössler A (2004) Definition von Krise und Krisenassessment. (на немецком) В Riecher-Rössler A, Berger P, Yilmaz AT, Stieglitz RD (ред.) Psychiatrisch-psychotherapeutische Krisenintervention. Göttingen: Hogrefe, 19–30.
20. Harkey J. Social Work Today 17, 1-20 (2017)
21. Vasiliauskiene I., Kavaliauskiene V. Į sveiką gyvenimą ir skaidrią būtį Vydūno keliu (Klaipėdos universitetas, 2021)
22. . Людмила Ким. Кейс менежмент амалиёти стандартлари: Ижтимоий хизматларга муҳтож инсонлар ва oilалар билан ишлаш юзасида қўлланма – 2019.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000